Siz uchun qo‘shimcha imkoniyat

(Ikkinchi oliy ta’lim haqida)

Mamlakatimizda oliy ta’lim sohasida tizimlilik, mas’uliyatlilik va qat’iy intizom bilan inqilobiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Oliy ta’lim tizimini barcha bosqichlarida, xususan, qabul jarayonlaridan boshlab, darslar, nazoratlar, amaliyot, o‘qishni ko‘chirish jarayonlarida inson omili kamaytirilib, tizimda tub yangiliklar qo‘llanilmoqda.

O‘zbekistonda hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalari soni 209 taga etib, shundan, 114 ta davlat, 65 ta nodavlat va 30 ta horijiy universitetlarning filiallarini tashkil etadi. Tizimda nodavlat sektorning rivojlanishi raqobat muhitining shakllanayotgani fuqarolarning ta’lim olish huquqini kafolatlashga xizmat qilayapdi.

Bu o‘zgarishlar mamlakatimizning eng chekka hududlaridan birida shaxsan Prezidentimizning tashabbusi bilan tashkil etilgan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham o‘z samarasini ko‘rsatmoqda.

Institutida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim bo‘yicha qabul parametrlari institutning ilmiy-pedagogik salohiyati va moddiy-texnik bazasi hamda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari xususiyatini hisobga olingan holda tashkil etilmoqda.

Institutda 2022/2023-o‘quv yilida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim bo‘yicha jami 254 nafar talabgorlar, shundan 179 nafari bakalaviriat ta’lim yo‘nalishining sirtqi va 75 nafari bakalaviriat ta’lim yo‘nalishining kunduzgi ta’lim shaklida talabalikka o‘qishga qabul qilindi.

Jumladan, ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha: boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida - 61 nafar, iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishida - 50 nafar, tarix ta’lim yo‘nalishida - 16 nafar, xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili ta’lim yo‘nalishida - 50 nafar, matematika va informatika ta’lim yo‘nalishida - 42 nafar, o‘zga tilli guruxlarda rus tili ta’lim yo‘nalishida 25 nafar va biologiya ta’lim yo‘nalishida 10 nafar talabalar tahsil olishdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son Farmoniga muvofiq fuqarolarning ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratish belgilab berilgan.

Mazkur farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 24 sentabrdagi 606-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom** tasdiqlangan va 2022 yil 1 maydan boshlab kuchga kiritilgan.

Nizomga muvofiq;

-Oliy ma’lumotga ega bo‘lgan bakalavr (diplomli mutaxassis) darajasiga ega shaxslar bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limni olishlari mumkin.

-Ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga o‘qishga kirish uchun abiturientlar har yili 10 iyuldan 10 avgustga qadar (shu kuni ham) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan maxsus elektron tizim orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

-Abiturientlar ro‘yxatdan o‘tishda maxsus elektron tizimga o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini kiritadi va quyidagi hujjatlarni yuklaydi:

oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatning nusxasi (yoki diplomdan ko‘chirma — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarini davlat granti asosida o‘qib tugatganlar uchun);

oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatning ilova nusxasi.

Bunda, xorijiy davlatlar ta’lim muassasalarining 1992 yil 1 yanvardan keyin berilgan diplomlari belgilangan tartibda nostrifikatsiyadan o‘tkazilgan bo‘lishi lozim.

-Ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga qabul qilish tartibi (kirish imtihoni shakli, baholash mezonlari, imtihon o‘tkazish muddatlari) oliy ta’lim muassasasining xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasasi kengashi tomonidan belgilanadi.

-Ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga qabul qilish natijalari har yili 30 avgustga qadar oliy ta’lim muassasalari tomonidan e’lon qilinadi.

-Talabalarni o‘qishga qabul qilish shartnomada belgilangan to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

-Ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limda o‘qish o‘quv rejalaridagi fanlar farqidan qat’i nazar, 2-kursdan boshlanadi.

Bunda ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limda o‘qish davomiyligi tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun belgilangan muddatdan bir yilga kam etib belgilanadi.

-Ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limda tahsil olgan shaxslarga, davlat attestatsiyasi yakunlari bo‘yicha, davlat namunasidagi hujjat (diplom va uning ilovasi) beriladi.

Tizimdagi islohatlar tufayli hamda xududdagi ish beruvchi korxonalar va talabgorlarning taklif va istaklarini inobatga olib, institutimizda keyingi yillarda aynan ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim shaklida tashkil etilgan yangi iqtisodiyot, biologiya, kompyuter injiniringi ta’lim yo‘nalishlarining qo‘shilishi ham mamlakatimizning chekka hududidagi kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlarni zamonaviy kadrlarga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2023/2024 o‘quv yili uchun ikkinchi va undan keyingi oliy ta’limga kunduzgi va sirtqi ta’lim shakli bo‘yicha to‘lov-kontrakt asosida quyidagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha talabgorlarni institutning 2-bosqichidan o‘qishga taklif qiladi:

Shifr	Ta’lim yo‘nalishlari nomi	Ta’lim shakli
60110500	Boshlang‘ich ta’lim	kunduzgi
60111700	O‘zga tilli guruhlarda rus tili	kunduzgi
60111800	Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili	kunduzgi
60220300	Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)	kunduzgi
60310100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)	kunduzgi
60610500	Kompyuter injiniringi	kunduzgi
60110500	Boshlang‘ich ta’lim	sirtqi
60110600	Matematika va informatika	sirtqi
60220300	Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha)	sirtqi
60310100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)	sirtqi

Murojaat uchun: Surxondaryo viloyat, Denov tuman Sh.Rashidov ko‘chasi 360-uy, qabul komissiyasiga (tel. raqami: 76-413-90-25, 90-248-23-71)

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i D.Xudayberdiev